

**O'ZBEKISTONDA MAXSUS SAYYOHLIK HUDUDLARINI TASHKIL
ETISH UCHUN TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN
BOSHQARISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA**

Adilova Nargiza Valijonovna

*Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universiteti
huzuridagi Diplomatika Akademiya Magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida turizimning rivojlanish tarixi va istiqbollari, xususan O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishda xorijiy tajribalar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xalqaro turizm, xalqaro turizm xizmat bozori, turistlar oqimini ta'minlab beruvchi asosiy mamlakatlar, Yaponiya Xalqaro Hamkorlik Assotsiatsiyasi, «ITV» (Berlin), «WTM» (London), «BIT» (Milan), «FITUR» (Madrid), «Toshkent xalqaro turistik ko'rgazmasi», xizmat ko'rsatilgan har bir xorijiy turistdan o'rtacha olinayotgan daromad.

Аннотация: В данной статье рассматриваются история и перспективы развития туризма в Республике Узбекистан, в частности зарубежный опыт развития туризма в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: Международный туризм, рынок международных туристических услуг, основные страны, обеспечивающие туристический поток, Японская ассоциация международного сотрудничества, «ITV» (Берлин), «WTM» (Лондон), «BIT» (Милан), «FITUR» (Мадрид). «Ташкентская международная туристская выставка», средний доход с каждого обслуживаемого иностранного туриста.

Abstract: This article discusses the history and prospects of the development of tourism in the Republic of Uzbekistan, in particular, foreign experiences in the development of tourism in the Republic of Uzbekistan.

Key words: International tourism, international tourism service market, main countries providing tourist flow, Japan International Cooperation Association, "ITV" (Berlin), "WTM" (London), "BIT" (Milan), "FITUR" » (Madrid), «Tashkent International Tourism Exhibition», average income from each foreign tourist served.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston Respublikasi keng jahonga yuz tutdi va xalqaro aloqalarga kirishib ketdi, O'zbekiston xalqaro aloqalarining rivojlanishida turizm sohasi alohida ajralib turadi.

Mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston hukumati birinchilar qatorida turizm sohasining rivojlanishiga alohida e'tibor qarata boshladi va buning uchun mas'ul bo'lgan yagona tashkilotni tuzdi. O'zbekiston Respublikasida turizmning

rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan tashkilot «O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasidir. Kompaniya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 iyuldagi UP-447 raqamli «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasining tashkil etilishi» to'g'risidagi Farmoni asosida tashkil etilgan. «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasining tarkibiga alohida-alohida xo'jalik faoliyati yuritgan «Inturist», «Sputnik» va Kasaba ittifoqlarining turizm va ekskursiyalar bo'yicha Kengashi kabi tashkilotlarning mintaqaviy tarkibiy bo'linmalari birlashtirildi.

Milliy kompaniyaning faoliyat yuritishi davomida Respublikamiz turizmida katta o'zgarishlar amalga oshirildi. O'zbekiston turizm sohasida bozor munosabatlari amal qila boshladi, davlatning ko'plab turistik korxonalari xususiylashtirildi, turistik mahsulot yaratish hamda shu turistik mahsulotga mustaqil narx belgilash erkinligi yaratib berildi. Natijada turistik bozorda korxonalar orasida raqobat yuzaga keldi. Raqobat O'zbekiston turistik korxonalarining o'z faoliyatini yanada rivojlantirish uchun yanada sifatli mahsulot ishlab chiqarish va bu bilan umumiy rivojlanishni ta'minlashga undadi.

«O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasining vujudga kelishi va bu tashkilotning 1993 yili Butunjahon turizm tashkilotiga a'zo bo'lib kirishi O'zbekiston turizmi taraqqiyotida qo'yilgan ulkan qadam bo'ldi. Respublikada xalqaro turizmni yangi bosqichga ko'tarish va samarali faoliyat ko'rsatishiga mos keladigan yangi shart-sharoit va mexanizmlar vujudga keldi.

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmni rivojlantirish borasida ishlab chiqilgan muhim hujjatlar qatoriga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 2-iyundagi «Buyuk Ipak yo'li»ni qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasi ishtirokini avj oldirish va respublikada Xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni hamda mazkur farmonni amalga oshirish maqsadida e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 3-iyundagi «O'zbekiston Respublikasida xalqaro turizmning zamonaviy infratuzilmasini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorini kiritish mumkin.

O'zbekiston xalqaro turizmning rivojlanishida «Buyuk Ipak Yo'li» ning tutgan o'rni va mohiyati nihoyatda cheksiz. Bir necha asrlar davomida ushbu zaminning G'arb va Sharqida istiqomat qilgan xalqlarni Janubiy-Sharqiy Osiyodan to O'rta yer dengizi mamlakatlarigacha cho'zilgan va «Buyuk Ipak Yo'li» deb nom olgan savdo-sotiq yo'li bir-biri bilan bog'lab turar edi. Bu yo'lga «Ipak Yo'li» deb nom berilishining asosiy sababi, bu yerda tashiladigan mahsulotlarning asosiy qismi ipak matolari va mahsulotlari bo'lganli-gidandir. Ipak tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan sir-asrorlarni Xitoy ustalari ming yillar davomida boshqa odamlardan yashirib kelgan. Ammo «Buyuk Ipak Yo'li» orqali tashilgan mahsulotlar faqat ipakdangina iborat bo'lmay, balki bu yo'l orqali bronza, chinni, jun, xom ashyolar va ulardan tayyorlangan buyumlar ham edi. «Buyuk Ipak Yo'li» qariyb ikki ming yillik tarixga ega bo'lib, bu

yo'l asosan Italiyadan tortib Turkiya orqali Iroq va Eronga borgan. U yerdan esa Markaziy Osiyo hamda Shimoliy Pomir orqali o'tib Qashqar va Yorkentgacha yetgan. Bu yerda yo'l ikkiga ajralgan hamda shimol tomondan Takla-Makon sahrosini aylanib o'tib, Lobnor ko'li yaqinida yana qo'shilgan va Xitoygacha borgan.

Buyuk Ipak Yo'lida Turkiston hududi yetakchi rolni bajarib kelgan. Ushbu hududdagi Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Xo'jand, Chorjuy kabi qator shaharlar ipak yo'lidagi asosiy manzillar bo'lgan. O'zbekiston o'zining qulay geografik o'rni tufayli bu tarixiy yo'lda markaziy o'rinni egallagan. «Buyuk Ipak Yo'li» ko'p asrlar davomida kishilik madaniyatining vujudga kelishida katta o'rin egallagan.

Uning tarixda tutgan o'rni hamda ahamiyatini tiklash, bu yo'lda turizmni rivojlantirish kabi maqsadlarni mo'ljallab, 1994 yilning oktyabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkiloti va uning nufuzli tashkiloti YUNESKO ishtirokida O'zbekistonda Butunjahon turistik tashkilotining kengashi bo'lib o'tdi. Kengash a'zolari Ipak yo'li bo'ylab turizm faoliyatini tiklash va rivojlantirishga qaratilgan Samarqand Dekloratsiyasini qabul qildi.

1995 yil oktyabrda Toshkent shahrida «Ipak Yo'lida turizm» nomi bilan birinchi xalqaro turistik yarmarka o'tkazildi. Shundan beri bunday yarmarka har yili uzluksiz ravishda o'tkazilib kelinmoqda. Bu yarmarkalarda tuzilgan shartnoma va bitimlar xalqaro turizmni yanada rivojlantirish, Respublikaning turizmga oid imkoniyatlarini ishga solish hamda «Buyuk Ipak Yo'li»ga xos bo'lgan qadimiy an'analarni tiklashga keng yo'l ochib berdi.

O'zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanish dinamikasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistonda halqaro turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar va shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integratsiya-lashuvi, mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon iqtisodiyoti tajribalaridan ma'lumki, turizm sohasi mamlakat byudjeti uchun zarur bo'lgan valyuta tushumini ta'minlash, yangi ish joylarini vujudga keltirish va shu bilan birgalikda aholining turmush darajasini ko'tarish uchun xizmat qiladi. Respublikamiz xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo'shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. O'zbekistonning geografik o'rni, nihoyatda qulay, tabiiy iqlim sharoitiga ega ekanligi, insoniyat madaniy taraqqiyotida ham katta o'rin tutadi. O'zbekiston betakror, ajoyib tarixiy arxitektura yodgorliklari, shirin-shakar mevalari, xilma-xil milliy taomlari, ajoyib milliy an'analari, urf-odatlariga ega bo'lgan mehmondo'st xalqiga ega. Bularning barchasi chet ellik turistlar e'tiborini o'ziga tortadi va ularni xayratlantiradi. Xalqaro turizmni rivojlantirishda O'zbekistondagi siyosiy barqarorlik, tinchlik-totuvlik muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonga keluvchi xorijiy fuqarolarning 85% ini MDH, mamlakatlari tashkil qilsa, qolganini Germaniya, AQSH, Janubiy Koreya, Fransiya, Yaponiya, Turkiya,

Buyuk Britaniya kabi mamlakatlar ta'minlaydi. «O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasining statistik ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonga jami tashrif buyurgan xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatish dinamikasi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan:

Jadval

«O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatish dinamikasi

<u>Ko'rsatkichlar</u>	1995	1996	1997	1998	1999	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2007	2008
<u>«O'zbek-turizm» MK bo'linmalari tomonidan xizmat ko'rsatilgan xorijiy turistlar, ming kishi</u>	92,0	173,8	252,9	272,0	274,0	278,0	231,0	196,7	230,4	262,8	241,9	273,2	343,5	370,1
<u>Oldingi vilga nisbatan % hisobida</u>	151,1	188,9	145,5	107,5	100,7	101,4	83,1	85,1	117,1	114,0	92,1	112,9	125,7	107,7

Manba: «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi ma'lumotlari

O'zbekistonga keluvchi xorijiy turistlarning aksariyati Toshkent-Samarqand-Buxoro-Xiva yo'nalishi bo'yicha sayohat qiladilar. Chunki, O'zbekiston turizm infratuzilmasi aynan shu manzilgohlarda yaxshiroq rivojlangan hamda Buyuk Ipak yo'liga taalluqli ko'pgina ob'ektlar aynan shu joylarda saqlanib qolingan (O'zbekistonga guruhlarda tashrif buyuruvchi turistlarning aksariyati Buyuk Ipak yo'li yo'nalishi doirasi harakatlanadilar). Shuningdek, Surxondaryo, Qashqadaryo va Farg'ona vodiysi viloyatlarida ham turistlarni jalb etishi mumkin bo'lgan ko'plab muhim turistlik jozibador manzillar mavjud bo'lsada, turistlik infratuzilmaning rivojlanmagani turistlarni bu yerga kelishiga tusqinlik qilar edi. Bu kabi kamchilarni bartaraf etish maqsadida hukumatimiz tomonidan Qamchiq dovonidan o'tiluvchi yo'l qayta ta'mirlandi, Surxondaryoga Samarqanddan va Toshkent shahridan Buxoro va Samarqand shaharlariga tursitlarni tashish uchun yangi elektrlashgan temir yo'l tortildi, bu joylarda ko'plab turistlik mehmonxonalar bunyod etilayapti.

O'zbekistonga keluvchi xorijiy turistlarning sonini o'sishiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan quyidagi holatlar bartaraf etib borilmoqda:

- O'zbekistonga kirish va chiqish, viza masalalari soddalashtirilmoqda;
- mehmonxonalarda tortiluvchi taomlar zamonaviy talablarga javob bera boshladi;

- O'zbekiston ichidagi mehmonxona xizmatlari narxlarining asosiy raqobatchilarimizga nisbatan qimmatligi, transport narxlarining yuqori hollari kamaytirib borilmoqda;
- turistik esdalik uchun harid qilinadigan milliy suvenirlarimizning xilma xilligi oshirilib, yo'qolib ketgan bir qator hunarmandchilik turlari tiklandi va qayta tashkil etildi;
- targ'ibot masalalariga yetarlicha e'tibor berilib, xorijiy fuqarolarning O'zbekiston to'g'risidagi ma'lumotlarining chegarasi kengaytirib borilmoqda;
- turistlar ixtiyoriga taklif etilayotgan tovar va xizmatlarning sifati narxiga moslashtirib borilmoqda.

Yuqorida sanab o'tilganlarni bartaraf etish bilan birgalikda, ko'rsatilayotgan turistik xizmatlarimizning sifatli bo'lishiga harakat qilinmoqda. Shuningdek, chet ellarda O'zbekiston turizmini reklama qilishda barcha turkorxonalarimizning tashviqot-targ'ibot ishlarining raqobatchi-lardan farq qiluvchi umumiy mavzu ostida birlashtirilishi O'zbekistonning xalqaro turistik bozorida o'z o'rnini mustahkamroq egallashiga yordam beradi. Buning uchun o'zimiz egalik qilayotgan turistik resurslarimizni yana bir bor qaytadan chuqur o'rganib chiqish, ulardan samarali va barqaror foydalanish yo'llarini aniqlash va shu asosida Milliy turistik brendni ishlab chiqish shart bo'lib qolmoqda. Shu sababli, «O'zbekturizm» Milliy Kompaniyasi tomonidan o'lkamiz turistik resurslari o'rganib chiqilib, turistik resurslarimizning maxsus kadastri yaratilmoqda. O'zbekiston turizmini rivojlantirish uchun xizmat qila oladigan resurslarining anchasi hali ochilmagani katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Oldimizda turgan vazifa - ularni izlab topish, o'rganish va ulardan kelgusi avlodlarmiz ham foydalana olishlarini o'ylagan holda yangi turmahsulotlar ishlab chiqishdir.

Butunjahon Turistik Tashkiloti ma'lumotlari asosida

Diagrammada ko'rsatilganidek, butun dunyo bo'yicha turizm oqimining o'sish sur'atlari jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi natijasida 2008 yilda 25% ga kamaygani qayd qilingan. Bu pasayish sur'atlarining boshlang'ich holati bo'lib, jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining davom etish muddatlariga bog'liq.

Xalqaro turistlar tomonidan eng katta qiziqish Toshkent -Samarqand - Buxoro - Urganch - Toshkent ekskursiya-tanishuv marshrutiga bildirilmoqda. Ushbu yo'nalish O'zbekistonning eng muhim tarixiy yodgorliklari bilan tanishish, milliy an'analar va udumlarni kuzatish hamda qadimiy shaharlar hayotiga qo'shilish imkoniyatini beradi. Turoperatorlarning fikrlaricha, Surxondaryo tarixiy-arxeologik markaz sifatida shuhrat topib borayapti.

Xalqaro turizm xizmat bozorida O'zbekiston o'z turistik mahsulotini asosan «Buyuk Ipak yo'li» reklamasi – brendi orqali sotadi. Bu loyiha bo'yicha eng ko'p sotiladigan turlar quyidagilar bo'ldi:

- Toshkent - Samarqand - Buxoro - Urganch - Toshkent;
- Toshkent - Samarqand - Shahrisabz - Buxoro - Urganch - Toshkent.

O'zbekistonga chet eldan keluvchi turistlarning 76 foizi Buxoro, Samarqand, Xorazm va Toshkentga tashrif buyurishga qiziqsa, qolgan 24% Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Farg'ona vodiysi viloyatlariga tashrif qiladi.

Turizmning xususiyatlaridan biri - uning mamlakatimizdagi bir qator mintaqalarning iqtisodiyoti va madaniyatiga faol ta'sir ko'rsatishidir. Turizm industriyasining tashkil qilinishi va faoliyat ko'rsatishi transport tizimining, turistlarga savdo, ijtimoiy-maishiy, madaniy, tibbiy xizmat ko'rsatishning rivojlanishi bilan yaqindan bog'liqdir.

O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri xorijiy turistlarni qadimiy tarixga ega bo'lgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi shaharlarimizdagi tarixiy obidalar, me'morchilik, diniy va madaniy yodgorliklar hamda respublikadagi boshqa diqqatga sazovor zamonaviy joylar bilan tanishtirish orqali ularga madaniy-ma'rifiy ma'lumotlar berishdir. Bundan tashqari, xorijlik turistlarni respublikamizning nafaqat tarixiy joylarini, balki go'zal tabiati bilan yaqindan tanishtirish, hordiq chiqarish, davolanish, sport bilan shug'ullanish kabi yangi 20 dan ortiq turistik marshrutlar ham yo'lga qo'yilgan.

Xorijiy davlatlardan O'zbekistonga turistlarni jalb qilishni yanada ustirish maqsadida «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi har yili «ITV» (Berlin), «WTM» (London), «VIT (Milan), «FITUR» (Madrid) kabi yirik xalqaro turistik yarmarkalarida ishtirok etib, xorijiy sheriklar bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. Ayni paytda, muntazam ravishda har yili «Toshkent xalqaro turistik ko'rgazmasi» uyushtiriladi, unda dunyodagi ko'pgina mamlakatlar turizm tashkilotlarining vakillari mehmon bo'ladilar.

O'zbekistonga turistlar oqimini ko'paytirish hamda respublikamizning xalqaro turistik markazlaridan biri sifatida mavqeini yuksaltirishda chegaradan, bojxonadan o'tish, ruxsatnoma olish va boshqa shu xildagi rasmiyatchiliklarni soddalashtirishning ahamiyati katta. Shunday masalalarni birgalikda hal etish maqsadida «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi tegishli vazirliklar va mahkamalar bilan birgalikda yaqindan ish olib bormoqda.

Yana shuni takidlash kerak, mamlakatimizga qiziquvchan turistlarni yanada ko'paytirish hamda bu yerdagi barqaror, turistlar uchun qulay vaziyat to'g'risida ularga to'g'ri ma'lumot tarqatish maqsadida «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi vakillari xalqaro turistik yarmarkalarida ishtirok etishdan tashqari, O'zbekistan Respublikasining xorijiy davlatlardagi elchixona-larida «O'zbekiston kunlari»ni ham o'tkazmoqdalar.

«O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi xorijiy xalqaro tashkilotlar bilan tajriba almashish va milliy turistik mahsulotlari bozorini rivojlantirish maqsadida yaqin

hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yimoqda. Jumladan, «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasiga Yaponiya Xalqaro Hamkorlik Assotsiatsiyasi (JICA) hamkorligida marketing tadqiqotlarini o'tkazish hamda mamlakatimizning turizm imkoniyatlarini o'rganish maqsadida yaponiyalik mutaxassis tashrif buyurdi. Bu tadqiqotlarning natijasida O'zbekistonda turizmni rivojlantirish dasturiga kiritilgan loyihalarga Yaponiya tomonidan texnikaviy va moliyaviy yordam ko'rsatish imkoniyatlari ko'rib chiqildi hamda ko'plab mutaxassislarimiz zamonaviy yapon turizm tadbirkorligi bilan tanishishdi.

Xulosa: O'zbekistonda turizmni rivojlantirish omillaridan yana biri xorijiy turistlarga ko'rsatilgan xizmatning sifatini tubdan yaxshilashga bog'lig'dir. Bular - restoran xizmati, tavsiya etiladigan taomlar, mekmonxona sharoiti, shuningdek transport, savdo, hordiq chiqarish va madaniy tadbirlar sifatini o'z ichiga oladi. «O'zbekturizm» Milliy kompaniyasi bu borada turistlik xizmatni sertifikatlash bo'yicha tashkiliy ishlar olib borayapti, bu yo'nalishdagi faoliyatni tartibga soluvchi tegishli me'yoriy hujjatlar ham ishlab chiqilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR (REFERENCES)

1. Turizm sayyohlik. T.Xoldarov , X.Tulenova Toshkent 2016 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 939-son qarori. 23.11.2017 yil// <https://www.norma.uz>
3. Ван Циншен, Историко-культурный туризм и развитие туристических городов Культура народов Причерноморья. 2002. №35. С.11-15
4. Дмитриевский Ю.Д. Туристские районы мира. Смоленск, 2000. 224 с.
5. Колотова Е. В. Рекреационное ресурсоведение: Учеб. пособие. - М.: РМАТС. [1, с. 92-93]
6. Карпов Г.А., Хорева Л.В. Экономика и управление туристской деятельностью. СПб., 2011. 268 с. [2.с.135]
7. Королёва Н.В. Имитационное моделирование направлений развития туризма в рекреационных зонах региона. Майкоп, 2007. 164 с.
8. Richards, G. (1996) Cultural Tourism in Europe. CABI, Wallingford. [1, с. 45]